

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ZOKIROVA NARGIZA SAVRIYEVNA

MUALLIF TAFAKKURINI RETSIPIYENT LINGVOKOGNITIV OLAM
MANZARASIGA MOSLASHDA TARJIMA
TRANSFORMATSIYALARINING ROLI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chogʻishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Zokirova Nargiza Savriyevna

Muallif tafakkurini retsiyent lingvokognitiv olam manzarasiga moslashda tarjima transformatsiyalarining roli.....3

Зокирова Наргиза Савриевна

Роль переводческих трансформаций в адаптации авторского мышления к лингвокогнитивной картине мира реципиента.....23

Zokirova Nargiza Savriyevna

The Role of Translation Transformations in the Adaptation of the Author’s Thinking to the Linguocognitive Picture of the World of the Recipient.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications.....49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ZOKIROVA NARGIZA SAVRIYEVNA

MUALLIF TAFAKKURINI RETSIPIYENT LINGVOKOGNITIV OLAM
MANZARASIGA MOSLASHDA TARJIMA
TRANSFORMATSIYALARINING ROLI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chogʻishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.4.PhD/Fil2943 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qosimova Nafisa Farhodovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jo'rayeva Malohat Muhammadovna
Filologiya fanlari doktori, professor

Davlatova Muhayyo Hasanovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil " 20 " iyun soat 11³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro sh., M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (926 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil " 5 " iyun kuni tarqatildi.

(2026-yil " 5 " iyun dagi 26-15 - raqamli reyestr bayonnomasi).



D.I.Xodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

O.O.Bobokalonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotiibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

O.M.Fayzulloyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarjimashunoslik sohasida antropotsentrik va kommunikativ nazariyalar rivojlanishi bilan tarjima jarayonlarida muallif tafakkuri, tarjimon tafakkuri, retsiyent lingvokognitiv olami, tarjima transformatsiyalari va strategiyalarining rolini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy tarjimashunoslik manzarasida tarjimaga bo'lgan lingvokognitiv yondashuv muallif tafakkuridagi birlamchi – asliyat matnidan boshlab retsiyentga tarjimon orqali yetib boradigan tarjima matnigacha bo'lgan tarjima jarayonini kognitiv, madaniy va kommunikativ nuqtayi nazardan talqin qilish tarjima jarayonida kontekstga muvofiq tarzda shakl va mazmun munosabati masalalarini dalillash zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa tarjimada madaniy kodlangan lisoniy birliklar tarjimasi tarjimonning bilimi, iste'dodi va kognitiv doirasi bilan bog'liqligini, tarjima transformatsiyalari tabiati va rolini aniqlab, ilmiy asoslashga imkon berdi.

Dunyo kognitiv tarjimashunosligida lison va tafakkur, kommunikativ muloqot, asliyat tili konseptual qoliplarini saqlab qolish va o'zgartirish masalalariga qaratilgan e'tiborning ortganligi madaniyatlararo muloqot va tarjima nazariyasi, tarjima jarayonida ekstralingvistik omillar, grammatik, leksik-semantik, stilistik, pragmatik transformatsiyalarning shartlanishini antropotsentrik paradigma doirasida yanada kengroq o'rganilishi muhimligini ko'rsatmoqda. Asliyat va tarjima tili konseptual, semantik jihatlar bilan bir qatorda ularning kommunikativ-funksional mohiyatiga e'tibor qaratish, tarjima jarayonini kognitiv yondashuv doirasida yoritish, tarjimada transformatsion usullar ishtirokini nazariy asoslash kognitiv tarjimashunoslik yo'nalishining ilmiy talqin doirasini kengaytirishga hamda tarjima transformatsiyalari muammolarini aniq va xolis hal qilishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizning bugungi kundagi jadal rivojlanish bosqichida "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"ligi¹ o'zbek tilshunosligi oldiga ham fundamental tadqiqotlarni jahon andozalari darajasida yuksaltirishdek ustuvor vazifani qo'ydi. Bu borada kognitiv faoliyat sifatida tarjimada muallif, retsiyent va tarjimon lingvokognitiv olam manzarasining akslanishini, unda tarjima strategiyalarining tillararo moslashtirish vazifasini, tarjima transformatsiyalarining mantiqiy asoslarini o'rganishga oid tadqiqotlar jahon tarjimashunosligida dolzarb masalalarni yoritish bilan bir qatorda tarjimaning madaniy, kognitiv va konseptual jihatlarini idrok qilishga keng yo'l ochadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr. – № 258 (6952).

ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tarjima masalalari, uning antropotsentrik paradigma doirasida shakllangan nazariyalari, jumladan, tarjima transformatsiyalari, ularni qo'llash strategiyalari, tarjima kontekstida voqelanish shartlari, ekvivalentlik va adekvatlik masalalari jahon va o'zbek tarjimashunosligida keng ko'lamda tadqiq etilgan. Xususan, L.S.Barxudarov, V.N.Komissarov, Yu.Sorokin, L.K.Latishev, A.Vejbitskaya, N.G.Valeyeva, R.O.Yakobsan, M.V.Pimenova, A.N.Chomsky, Y.A.Nayda, O.Kade, J.P.Vinye, J.Darbelne, P.Nyumark, V.G.Gak, Ya.I.Retsker, A.D.Shveytser, G'.Salomov, Q.Musayev, I.K.Mirzayev, R.G'.Raximov, Sh.Safarov, K.Baqoyeva, D.U.Ashurova; Sh.Usmonova, N.Qambarov, N.F.Qosimova, R.R.Kasimova va boshqa olimlar ishlarida tarjimaning nazariy va amaliy masalalari, tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik, tarjima transformatsiyalari tipologiyasi, tarjimada kognitiv faoliyat mexanizmlari, tarjimada asliyat matni muallif tafakkuri, tarjimonning kognitiv yondashuvi, asliyat tili konseptual qoliplari, tarjima transformatsiyalari qo'llanishining strategiyasi, madaniy kodlangan lisoniy birliklar tarjimasini kabi masalalar, shuningdek, tarjimon va retsiyent shaxsi, tarjimaning madaniy va pragmatik aspektlari masalalari keng ko'lamda o'rganilgan².

²Бархударов Л.С. Язык и перевод. Вопросы общей и частной теории перевода. – Изд. 2-е. – Москва: Изд-во ЛКИ, 2008. – 240 с.; Комиссаров В.Н. Когнитивные аспекты перевода // Перевод и лингвистика текста. – Москва: Всероссийский центр переводов, 1994. 22 с.; Сорокин Ю.А. Введение в этнопсихоллингвистику. – Ульяновск: Ул.ГУ, 1998. – 138 с.; Латышев Л.К. Технология перевода. – Москва: НВИ-Тезаурус, 2001. – 280 с.; Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. – Москва: Языки славянской культуры, 2001; Вежбицкая А. Сопоставление культур через посредство лексики и прагматики / А. Вежбицкая. – Москва: Яз. славян. культуры., 2001. – 272 с.; Валеева Н.Г. Введение в переводоведение: Курс лекций. – Москва: Изд-во РУДН, 2006. – 85 с.; Якобсон Р.О. О лингвистических аспектах перевода // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – Москва: Международные отношения, 1978. – С. 16-24; Пименова М.В. Языковая картина мира: учебное пособие. – Москва: Флинта, 2014. – 108 с.; Chomsky N. Conditions on transformations. In Essays on form and Interpretation. – New York: Elsevier North-Holland, 1977. – P. 81-162; Chomsky N. Essays on form and interpretation. – Amsterdam, Netherlands: North-Holland Publishing Company, 1977. – 216 p.; Nida E.A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. – Brill Academic Pub, 1964; Kade O. Zufall und Gezetzmässigkeit in der

Tarjima jarayonida tarjima transformatsiyalarining ishtiroki, ularning mos turlarini tanlash strategiyalari, muallif fikrini tarjima transformatsiyalari yordamida ifodalash, shuningdek, tarjima deformatsiyalari rus va jahon tarjimashunosligida L.K.Latishev, K.I.Leontyeva, Ye.Lukashevich, Yu.Sorokin, Ye.Tarasov, S.Ter-Minasova, N.Ufimseva, T.Fesenko, K.Sedov, V.Maslova, Z.Popova, L.Venuti, M.A.Beyker, S.Basnet, J.Munday, G.Tury, L.Molina va Hurtardo Albir, M.Orudari, H.P.Krings, R.Leppihalme, W.Lyorsher, et al Richards, C.Seginot, F.Houbert tomonidan o'rganilgan bo'lib³, ushbu

Übersetzung. – Leipzig: VEB Verlag Enzyklopädie, 1968. – P. 74; Vinay J., J. Darbelnet. Stylistique comparée du français et de l'anglais. – Paris: Georgetown University Press, 1977. – P. 47-51.; J. P.Vinay & J.Darbelnet, Stylistique Comparée du Français et de l'Anglais: Méthode de Traduction. – Paris, Didier, 1958; Newmark P. A Textbook of Translation. – Prentice Hall, 1988; Гак В.Г. Языковые преобразования. – Москва: Языки русской культуры, 1998. – 768 с.; Рецкер Я.И. О закономерных соответствиях при переводе на родной язык // Теория и методика учебного перевода. – Москва: Изд-во. Акад. пед. наук РСФСР, 1950. – С.156-183.; Швейцер А.Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. Изд. 4-ое, – Москва: URSS, 2019. – 216 с.; Саломов Ф. Tarjima san'ati. – Toshkent, 1985. – 263 б.; Мусаев Қ. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 б.; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. Дисс... доктора филол. наук. – Ташкент: Институт языкознания АН УзССР, 2002. – 472 с.; Рахимов Ф.Х. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2016. – 176 б.; Сафаров Ш. Когнитив таржимашунослик. Монография. – Самарқанд, 2019. – 354 б.; Сафаров Ш. Tarjimoning lisoniy shaxs sifatida bazaradigan faoliyati // Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(3) (68). – Самарқанд, 2018. – Б. 9-20.; Бақоева М.Қ. Инглиз ва Америка адабиётидан ўзбек тилига шеърлий таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари. – Toshkent: Fan, 2015. – 288 б.; Ашурова Д. У. Теория текста с позиций когнитивно-дискурсивной парадигмы // Бюллетен науки и практики 5. №3. – Toshkent, 2019. С. 505-511; Usmanova Sh. R. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshket: Universitet, 2019. – 191 b.; I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma, – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012, – 110 b; N.F.Qosimova. Tarjima kognitiv mexanizmlarida psixolingvistik qoliplar ishtirokining lingvofalsafiy shartlanishi: filol. fan. doktori diss... – Buxoro, 2024. – 251 b.; R.R.Kasimova. Bevosita o'girmalarda muallif va tarjimon psixologiyasi (ingliz hamda o'zbek mutarjimplari faoliyati misolida): filol. fan. doktori diss... – Buxoro, 2024. – 246 b.

³ Латышев Л.К. Перевод: теория, практика и методика преподавания / Л.К. Латышев. – Москва: Издательский центр «Академия», 2003. – 192 с.; Леонтева К.И. Когнитивно-семиотическая модель перевода: доминанты, перспектива, дискурс (на материале русских переводов произведений англоязычной литературы XIX-XX веков). Дисс... доктора филол. наук. – Твер, 2022. – 523 с.; Сорокин Ю.А. Лакуны: еще один ракурс рассмотрения / Ю.А. Сорокин. // Лакуны в языке и речи: Сборник научных трудов / под ред. проф. Ю.А. Сорокина, проф. Г.В. Быковой. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. – Вып. 1. – С. 3-11; Сорокин Ю.А. Этнопсихоллингвистика / Ю.А. Сорокин, И.Ю. Марковина, А.Н. Крюков / отв. ред. Ю. А. Сорокин. – Москва: Наука, 1988. – 190 с.; Тарасов Е.Ф. Актуальные проблемы анализа языкового сознания // Языковое сознание и образ мира: Сб. статей / Отв. Ред. Н.В. Уфимцева, – Москва: ИЯ РАН, 2000, – С. 24-32; Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: (Учеб. пособие) / С.Г.Тер-Минасова. – Москва: Слово / Slovo, 2000. – 624 с. Уфимцева Н.В. Языковое сознание и образ мира славян // Языковое сознание и образ мира, – Москва: ИЯ РАН, 2000. – С. 207-218; Фесенко Т.А. Эмоциональные концепты в структуре вербальной модели менталитета // Филология и культура. – Часть II. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2001. – С. 23-26; Седов К.Ф. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. – Москва: Лабиринт, 2004. – 320 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.; Попова З.Д., Стернин И.А. Язык и национальная картина мира. – изд. 4-ое, стер. – Берлин: Директ-Медиа, 2015. – 101 с.; Venuti L. Strategies of translation. In M. Baker (Ed.), Encyclopedia of translation studies. – London and New York: Routledge, 1998. – pp. 240-244; Baker M. A Coursebook on Translation / M.A. Baker. – London: St. Jerome Publishing, 1992. – 320 p.; Bassnett S. Translation Studies / S. Bassnett. – London; New York: Routledge, 2000. – 168 p.; Munday, J. Introducing translation studies / J. Munday. – London; N.Y.: Routledge, 2001. – 222 p.; Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam and Philadelphia: Benjamins, 1995. – P. 103-105; Lucía Molina et Amparo Hurtado Albir Meta: Translation Techniques Revisited: A Dynamic and Functionalist Approach journal des traducteurs / Meta: Translators' Journal, vol. 47, 4, 2002. – P. 498-512; M. Orudari. Translation Journal. – 2007. –Volume 11, No. 3.; Orudari M. Good translation: Art, Craft or Science? Translation Journal. – 2008. – Volume 12, No. 1.; Krings H.P. Translation problems and translation strategies of advanced German learners of French. In J. – House, & S. Blum-Kulka (Eds.), 1986. Interlingual and intercultural communication. – pp. 263-75. Tübingen: Gunter Narr.; Leppihalme, R. Culture bumps: an empirical approach to the translation of

olimlarning ishlarida tarjima nazariyasining rivojlanishi va uning tarjimashunoslik, lingvokulturologiya, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning mustaqil qismi sifatida shakllanishini o‘rganishda tarjimani o‘qitish, o‘rganish va amalga oshirish, tarjima metodlari, tarjima transformatsiyalari, muallif va tarjimon lisoniy tafakkuri va madaniy ma’lumotlarni tarjimada tarjima transformatsiyalari orqali ifodalash usullari masalalari keng va chuqur tadqiq etilgan.

Mazkur dissertatsion ishda muallif tafakkurini retsipyent lingvokognitiv olam manzarasiga moslashda tarjima transformatsiyalarining roli tahlil qilingan hamda ularning kontekstual, funksional, kommunikativ vazifalari ochib berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasining 2023-2027 yillarga mo‘ljallangan “Adabiyotshunoslik, tilshunoslik, va tarjima ishi” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi muallif tafakkurini retsipyent kognitiv olam manzarasiga moslashda tarjima transformatsiyalarining rolini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

inson olam manzarasi tushunchasining mohiyati hamda tarjima maydonining kognitiv jarayonlar bilan qorishuvi masalalarini yoritish;

tarjima diskursining muallif, tarjimon va retsipyent tafakkuri, shuningdek, ularning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy kompetensiyalari bilan bog‘liqligini ochib berish;

asliyat va tarjima matnlariaro ekvivalentlik darajasini aniqlashda va ular o‘ratasidagi tafovutni qisqartirishda tarjima transformatsiyalarining ahamiyatini aniqlash;

tarjima jarayonida lingvomadaniy birliklarni tarjima qilishning mavjud strategiyalarini tadqiq qilish hamda bu jarayonda tarjima transformatsiyalarining rolini ko‘rsatish;

muallif, tarjimon va retsipyent lisoniy tafakkurining shakllanishi millat tili, madaniyati, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati, e’tiqodiy tushunchalari, tafakkur tarzi bilan chambarchas bog‘liqligini aniqlash;

tarjima jarayonida leksik, grammatik, madaniy, kognitiv kabi tarjima transformatsiyalarining amaliy qo‘llanilishini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va ingliz tillarida yaratilgan badiiy asarlar va ularning o‘zaro bevosita amalga oshirilgan tarjimalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini muallif tafakkurini retsipyent kognitiv olam manzarasiga moslashda tarjima transformatsiyalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvomadaniy, transformatsion, kontekstual-situativ, lingvopragmatik, kognitiv tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

allusions. – Clevedon: Multilingual Matters. 1997.; Loescher W. Translation performance, translation process and translation strategies. Tuebingen: Guten Narr, 1991.; Richards, et al. Longman dictionary of applied linguistics. UK: Longman. 1985; Seguinot C. The translation process. Toronto: H.G. Publications. 1989.

muallif tafakkurini retsipyent kognitiv olami manzarasiga moslashda mutarjim va retsipyent olami manzaralari orasidagi tafovutlarni hisobga olgan holda grammatik, leksik, pragmatik, madaniy kabi tarjima transformatsiyalarining amaliyoti tarjimonning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy kompetensiyalari negizida amalga oshishi dalillangan;

tarjimon muallifning olamni idrok etishdagi kognitiv modelini anglash va uni retsipyentning dunyoqarashi va madaniy tajribasiga moslashtirish uchun tarjima amaliyotini semantik, sintaktik, pragmatik va stilistik transformatsiyalarga murojaat qilib amalga oshirishi asoslangan;

milliylikni ifodalovchi realiyalar, tarixiy soʻzlar va madaniy kodlangan lisoniy birliklarni tarjima qilishda transkripsiya, kalkalash, perifrazalash, ekvivalensiya, analog, kompensatsiya, generalizatsiya singari tarjima transformatsiyalarining funktsionalligi ustivorlik kasb etishi aniqlangan;

badiiy tarjima jarayonida til egalari tafakkuridagi tafovut, til birligini nutqda qoʻllashning turli tendensiyalari, soʻz, soʻz birikmasi, gapning maʼno va qiymatidagi farqlar tufayli yuzaga keladigan madaniyatlararo va lingvistik nomutanosiblik holatlarini bartaraf etishda lingvomadaniy, pragmatik, kognitiv transformatsiyalarning mahsuldorligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

asliyat matnidagi milliylik ruhiyatini ifodalashda mutarjimning lisoniy, kognitiv, manaviy va madaniy bilimlarni oʻzida mujassam etgan shaxs boʻlishining muhimligi oʻrganilgan;

tanlangan asarlarning asliyat va tarjima matnlarining lingvistik, pragmatik, kognitiv xususiyatlarini va mutarjimlarning tarjima mahoratini baholashda tarjimada qoʻllangan transformatsiyalarning ahamiyati aniqlangan;

tarjimon va retsipyent lisoniy shaxsi modellari, tarjima transformatsiyalari boʻyicha toʻplangan materiallar, umumlashma va xulosalar hozirgi qiyosiy tilshunosligimiz uchun muhim ilmiy-nazariy maʼlumotlar taqdim etishi, shuningdek, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Lingvokulturologiya”, “Kognitiv tarjimashunoslik”, “Kognitiv tilshunoslik”, “Zamonaviy tilshunoslik”, “Qiyosiy tilshunoslik” kabi fanlardan yaratilajak yangi darslik va qoʻllanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qoʻyilganligi, chiqarilgan xulosalarning lingvomadaniy, transformatsion, kontekstual-situativ, lingvopragmatik, kognitiv tahlil usullari bilan asoslanganligi, nazariy gʻoyalar va maʼlumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan oʻtkazilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati muallif tafakkurini retsipyent lingvokognitiv olam manzarasiga moslashda tarjima transformatsiyalarining roli, milliy kontekstda qoʻllaniladigan milliylashgan soʻzlar tasnifi hamda ular tarjimasini parametrlari xususiyatlari boʻyicha chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan har bir til tizimidagi turli konseptual-kognitiv belgilarini chogʻishtirma aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va oʻrta maxsus, umumtaʼlim tizimida til va nutq hodisalarining tarjimada ahamiyatini farqlash, badiiy matn tahliliga erishish, adabiy manbalarning qiyosiy til tahlili boʻyicha maxsus kurs va seminarlar oʻtish, “Tarjimada adabiy til”, “Lingvokulturologiya”, “Amaliy tarjima”, “Tarjimashunoslik”, “Zamonaviy tilshunoslik”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Badiiy tarjima asoslari” fanlaridan darslik va oʻquv qoʻllanmalar yaratish, shuningdek, ommaviy axbopot vositalarida xorijiy tillarni oʻrganishga hamda oʻzbek tilidagi asarlarni xorijiy tillarga tarjima qilishga yoʻnaltirilgan tashviqni kuchaytirish uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Muallif tafakkurini retsipyent lingvokognitiv olam manzarasiga moslashda tarjima transformatsiyalarining roli tadqiqini amalga oshirish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

muallif tafakkurini retsipyent kognitiv olam manzarasiga moslashda mutarjim va retsipyent olam manzaralari orasidagi tafovutlarni hisobga olgan holda grammatik, leksik, pragmatik, madaniy kabi tarjima transformatsiyalarining amaliyoti tarjimonning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy kompetensiyalari negizida amalga oshishiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarga bajarilgan OT-F1-030 “Oʻzbek adabiyoti tarixi” koʻp jildlik monografiyasini (7 jild) chop etish” mavzuidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 27-oktyabrdagi 01/10-2268-son maʼlumotnomasi). Natijada milliy va jahon adabiyotlari tarjimasining millat hamda tarjimon tafakkurini shakllantirishdagi rolini asoslashga xizmat qilgan;

tarjimon muallifning kognitiv modelini anglash va uni retsipyentning dunyoqarashi va madaniy tajribasiga moslashtirish uchun semantik, sintaktik, pragmatik, stilistik transformatsiyalarga murojaat qilib amalga oshirishiga oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida 2016-2018-yillarda amalga oshirilgan “561624-YeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “Oʻzbekistonda oliy taʼlim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli xalqaro loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 31-oktyabrdagi №995/02-son maʼlumotnomasi). Natijada loyiha ishtirokchilari va mutaxassislarining oʻzbek va ingliz tillarida qoʻllaydigan bilimlarini oshirishga, matnlarning leksik, semantik qatlamidagi lingvopragmatik xususiyatlarini til oʻzlashtirish asosi sifatida talqin etishga imkon bergan;

milliylikni ifodalovchi realiyalar, tarixiy soʻzlar, milliy koloritni ifodalovchi soʻzlarni tarjima qilishda transkripsiya, kalkalash, perifrazalash, ekvivalensiya, analog, kompensatsiya, generalizatsiya singari tarjima transformatsiyalarining funktsionalligi tarjimon lisoniy shaxsi kognitivlik nuqtai nazaridan tanlanishi bilan bogʻliq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida “Assalom, Buxoro”, “Ayol va jamiyat” koʻrsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 20-sentyabrdagi 02-09-266-son maʼlumotnomasi). Natijada ushbu telekoʻrsatuvlar uchun tayyorlangan

materiallarining mazmuni mukammallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga erishilgan va ko'rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan;

badiiy tarjima jarayonida til egalari tafakkuridagi tafovut, til birligini nutqda qo'llashning turli tendensiyalarining mavjudligi, so'z, so'z birikmasi, gapning ma'no va qiymatidagi farqlar tufayli yuzaga keladigan madaniyatlararo va lingvistik nomutanosiblik holatlarini bartaraf etishda lingvomadaniy, pragmatik, kognitiv transformatsiyalar samarali usul ekanligiga doir ilmiy xulosalaridan Oliy ta'limning 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” nomli darslikni yaratishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 19-sentabrdagi 02/5488-son ma'lumotnomasi). Natijada muallif tafakkurini retsiyent lingvokognitiv olam manzarasiga moslashtirish tarjimonning tajribasi va mohirligi orqali shakllanishi, tarjimaning lingvomadaniy jihatlari talqiniga doir materiallar orqali “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fanining amaliy qismlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish nashr etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 6 ta respublika va 7 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti keltirilgan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning I bobi “**Tarjima kognitiv faoliyat sifatida**” deb nomlangan bo'lib, unda inson olam manzarasi tushunchasining mohiyati, tarjima maydonining kognitiv jarayonlar bilan qorishuvi, kognitiv yondashuv doirasida tarjima birliklari muammosi, tarjima transformatsiyalarining mantiqiy asoslari kabi muammolar ko'rib chiqilgan.

Hozirgi kunda ilmiy sohada madaniyatlararo muloqot tadqiqotiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Madaniyatlararo muloqot – bu muloqot egalari (kommunikantlar) ning ikki madaniy-lisoniy maydonining kesishuvidir.

Madaniyatlararo muloqotda anglashilmovchilikning asosiy sababi tillarning har xilligi emas, balki muloqot egalari milliy ongining (kognitiv olam manzarasining) turli xilligidir, va bu nafaqat ularning olam manzarasi tarkibining

xilma-xilligi bilan balkim kognitiv strukturalarning mos kelmasligi bilan ham farq qiladi. Tarjimashunoslikda “*inson olam manzarasi*” tushunchasi katta ahamiyatga ega, chunki har qanday tarjima jarayonida tarjimonning dunyoni qanday qabul qilishi va tushunishi, shuningdek, u tarjima qilayotgan matndagi muallifning dunyoqarashi muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy tilshunoslikdagi “olam manzarasi” tushunchasini o‘rganish borasidagi ilk tadqiqotlar E.Sepir, B.Uorf, A.Potebnya ishlarida uchraydi⁴. XX asrning 60-yillarida olam manzarasini o‘rganish boshlanib, G.Brutyayn, G.Kolshanskiy, G.Pochepsov, V.Kasevich, R.Pavilenis, N.Ufimseva kabi olimlar ishlarining tadqiqot markazida tilning olam manzarasini shakllantirishdagi roli muammosi o‘rin oladi⁵. Tilning atrofdagi voqelikni aks ettirish qobiliyati masalasi bo‘yicha til olamni aks ettiradi. Bunday qarash, masalan, G.Pochepsov ishida uchraydiki, u – til yordamida biz olamni aks ettiramiz va aynan aks ettiramiz, ta’riflaymiz emas, aniqlaymiz, nafaqat ta’riflaymiz, chunki ta’riflash – bu olamni tilda aks ettirishning shakllaridan biri, xolos, savollar, undovlar ham boshqa barcha nutqiy aktlar kabi olamni aks ettirish yoki tasavvur qilishning xuddi shunday shakllaridir deb ta’kidlaydi⁶. Til voqelik bilan belgili (semiotik) bog‘lanishga ega. Bunga munosabat bildirar ekan, M.Pimenova shunday xulosaga keladi: Til voqelikni aks ettirmaydi, balki uni belgili usul orqali tasvirlaydi. Demak, bu konsepsiyada til o‘ziga xos vosita bo‘lib, uning yordamida borliq inson tomonidan konseptuallashtiriladi, ya’ni hodisalar belgilarini aniqlash orqali ularga bog‘liq tushunchani tasavvurda gavdalantirish sodir bo‘ladi⁷.

M.Beykerga asosan tarjimada “inson olam manzarasi” tushunchasini aniq ifodalash uchun bir necha jihatni hisobga olish kerak⁸:

1. *Olam haqidagi qarashlar;*
2. *Dunyoqarashning falsafiy aspektlari;*
3. *Subyektiv va obyektiv idrokning integratsiyasi.*

Shunday qilib, inson olam manzarasi tushunchasining tarjimasida uning subyektiv, falsafiy va madaniy jihatlarini hisobga olgan holda, mazmunni to‘g‘ri va keng qamrab oluvchi shaklda ifoda etish muhimdir.

L.V.Miller asarida kognitiv jihat “nafaqat individual ongga, balki ma’lum bir etnik-madaniy hamjamiyatning psixologik sohasiga tegishli bo‘lgan murakkab aqliy ta’lim”, “madaniy xotirada qayd etilgan va yangi badiiy ma’nolarni

⁴Sapir E. Conceptual categories in primitive languages. – Science, vol. 74. 1931, – 578 pp.; Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – Москва, 1993; Whorf B.L. Language, thought, and reality, – New York, 1956; Потебня А. А. Мысл и язык / А. А. Потебня. – Москва: Лабиринт, 1999. – С. 202.

⁵Брутян Г.А. Язык и картина мира. Науч. докл. высш. шк., Философские науки. – 1973. – №1. – С. 108-111; Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и в языке. – Москва: Наука, 1990. – 108 с.; Почепцов Г.Г. Языковая ментальность: способы представления мира// Вопросы языкознания. – 1990. – №6 – С. 110-122; Касевич В.Б. Буддизм. Картина мира. Язык. – Санкт-Петербург: Центр «Петербургское Востоковедение», 1996. – 288 с.; Павиленис Р.И., Петров В.В. Язык как объект логико-методологического анализа: новые тенденции и перспективы. – Вопросы философии. 1987. № 7. – С. 54-61; Уфимцева Н.В. Языковое сознание и образ мира славян // Языковое сознание и образ мира. – Москва: ИЯ РАН, 2000. Krings Н.Р. Translation problems and translation strategies of advanced German learners of French. In J. House, & S. Blum-Kulka (Eds.), 1986. С. 207-218; Пименова М. В. Языковая картина мира: учебное пособие. – Москва: Флинта, 2014. – 108 с.

⁶Почепцов Г.Г. Языковая ментальность: способы представления мира // Вопросы языкознания. № 6. – Москва, 1990. – С. 110-122.

⁷Пименова М. В. Языковая картина мира. Учебное пособие. – Москва: Флинта, 2014. – 108 с.

⁸Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation (1st ed.). Routledge. 1992. – 320 pp.

shakllantirishda qurilish materiali sifatida harakat qilishga qodir bo‘lgan universal badiiy tajriba” deb ta’riflanadi⁹.

Lotincha *transformatio* so‘zi o‘zgartirish, *transformare* fe’li esa o‘zgartirmoq, almashtirmoq, shuningdek tarjima qilmoq ma’nolarini bildiradi. Lotin fe’lining oxirgi ma’nosi biz uchun ayniqsa muhim bo‘lib chiqadi, chunki u tarjima jarayonini narsaning almashtirilishi, o‘zgarishi harakatlariga bog‘lash imkonini beradi. Ot ham, fe’l ham o‘zgarish jarayonlarini bildiradi, o‘zgartirish esa biror narsaga boshqa obraz, ko‘rinish berish, uni butunlay o‘zgartirish demakdir. Ijobiy ma’no ba’zi zamonaviy tillarning so‘zlarida ham aniq ko‘rinadi, inglizcha *transformation*¹⁰ so‘zining sinonimlari sifatida, biror narsa yoki shaxsning yaxshilanishi uchun tashqi ko‘rinishi yoki xarakterining butunlay o‘zgarishi deb tariflanadi. Bu bizga transformatsiya haqida yangilanish sifatida gapirish imkonini beradi.

Tarjima birliklari yoki translatemalar — bu tarjima jarayonida tarjimon tomonidan matndan ajratib olinadigan va tarjima qilinadigan til birliklaridir. Ushbu birliklar tarjima jarayonida qaysi birliklar, ma’nolar, g‘oyalar va tushunchalar tarjima qilinishini belgilaydi.

Translatemalarning turlari quyidagi darajalarda bo‘lishi mumkin:

1. So‘z darajasidagi tarjima birligi: So‘z tarjimada eng oddiy birlik hisoblanadi. Tarjimon so‘zning aniq leksik ma’nosini boshqa tilda topishga harakat qiladi. Bunda so‘zning lug‘aviy ma’nosi va grammatika qoidalari hisobga olinadi.

Masalan, ingliz tilidagi “*When twenty minutes passed ...*” jumlasidagi so‘zlar o‘zbek tilida “*Yigirma daqiqacha ... keyin*” deb tarjima qilinadi. Bu yerda “*twenty, minutes*” so‘zlari tarjima birligi sifatida olingan¹¹.

2. Iboralar va frazemalar darajasidagi tarjima birligi: Iboralar yoki frazeologik birliklar odatda bir butun ma’noni ifodalaydi va ular tarjima qilinayotganda yaxlitlik saqlanishi kerak.

Masalan, ingliz tilidagi “*to drive to the brink of*”¹² iborasi o‘zbek tilida “*aqldan ozdirmoq, go’shtini yemoq, asabiga tegmoq*” ma’nolarini bildiradi. Bu iboraning so‘zma-so‘z tarjimasi asl ma’noni yo‘qotadi, shuning uchun u ibora sifatida bir butun birlik tarzida tarjima qilinadi.

3. Gap darajasidagi tarjima birligi: Gap bir butun birlik sifatida tarjima qilinishi mumkin. Bunda gapping grammatik va sintaktik tuzilmasi muhim ahamiyatga ega. Tarjimon gapni to‘liq tarjima qilishga harakat qiladi, shu bilan birga gapdagi bo‘laklar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni ham saqlab qoladi. Masalan, “*Finally, at mile twenty-eight, an exit appeared.*” ingliz tilidan “*Nihoyat, yigirma sakkizinchi milda burilish paydo bo‘ldi.*”¹³ deb tarjima qilinadi.

4. Paragraf yoki matn darajasidagi tarjima birligi: Paragraf yoki matnni yaxlit birlik sifatida ko‘rish ba’zida zarur bo‘ladi, ayniqsa, matnning umumiy ma’nosi va

⁹Миллер Л.В. Лингвокогнитивные механизмы формирования художественной картины мира: на материале русской литературы: автореферат диссертации доктора филологических наук / Л. В. Миллер. – Санкт-Петербург, 2004. – С. 41-42.

¹⁰Cambridge dictionary, <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/transformation>.

¹¹Strelecky John. The Café on the Edge of the World // A story about the meaning of life. USA: Aspen Light Publishing., 2020. – P. 8.

¹²Strelecky John. O’sha erda.


¹³ Strelecky John. The Café on the Edge of the World. // A story about the meaning of life. USA: Aspen Light Publishing, 2020. – 11 p.

mantiqiy tuzilishi muhim bo'lsa. Bu yondashuv odatda katta hajmdagi matnlar, ayniqsa ilmiy, badiiy yoki texnik asarlar tarjimasida qo'llaniladi.

Tarjima orqali – tillararo va madaniyatlararo kommunikatsiya vositasida – tarjima maydoni – muloqot subyektlarining differentsial tushunchalarining o'zaro ta'siri natijasida mavjud bo'lgan “o'zini o'zi rivojlantiruvchi ochiq dinamik tizim” shakllanadi¹⁴.

L.V.Kushnina tomonidan kiritilgan “tarjima maydoni” atamasi “tillararo va madaniyatlararo o'zaro ta'sirning mavjudligi shakli, dunyoning tarjima manzarasining namoyon bo'lishi va matni bir tildan boshqasiga, bir madaniyatdan boshqasiga tarjima qilishda yuzaga keladigan jarayonlar va munosabatlarning amalda mavjud uzluksizligini aks ettiradi” deb ta'riflanadi¹⁵.

Muallif (a) va asliyat tili matnining vakili bo'lmagan retsipiyent (r) o'rtasidagi munosabatlar quyidagicha ifodalanishi mumkin (1.1-rasm):




1.1-rasm. Muallif va retsipiyent individual kognitiv maydonlarining kesishuvi.

(IKMm-muallif individual kognitiv maydoni, IKMr-retsipiyent individual kognitiv maydoni, KBm-muallif kognitiv bazasi, KBr-retsipiyent kognitiv bazasi.)

Ushbu rasm ularning individual kognitiv maydonlari bir-biriga to'g'ri kelmasligini, faqat bir lahzalik vaziyatni bilish sohasida kesishishini anglatadi, ya'ni ular o'rtasida matn mavjud. Shubhasiz, kognitiv baza (asos) lar ham har xil.

Kesishuv nuqtasida boshqa munosabatlar paydo bo'ladi (1.2-rasm): muallif (a) - tarjimon (t):



1.2-rasm. Muallif va tarjimon individual kognitiv maydonlari kesishuvida umumiy kognitiv maydon va umumiy kognitiv baza hosil bo'lishi.


(IKMm-muallif individual kognitiv maydoni, IKMt-tarjimon individual kognitiv maydoni, KB- kognitiv baza, KM-kognitiv maydon.)

Individual kognitiv maydonlarning kesishish sohasida umumiy kognitiv baza mavjud. Bo'yalgan qism umumiy bilimlar miqdorini ko'rsatadi, bir vaqtning o'zida muallifning niyatiga mos keladigan tasvirni yaratish joyini ko'rsatadi.

Retsipiyent manba matni tarjimon tomonidan yetkazilgan tarzda qabul qiladi (1.3-rasm).

¹⁴ Кушнина Л.В. Языки и культуры в переводческом пространстве. – Перм: Изд-во Перм. гос. техн. ун-та, 2004. – 15 с.; Кушнина Л.В., Аликина Е.В. Когниция, гармония, синергия как переводческие категории // Новое в лингвистике и методике преподавания иностранных и русского языков. – Санкт-Петербург: Изд-во СПб. гос. эконом. ун-та, 2018. – №42. – С. 283-288.

¹⁵ Кушнина Л.В. Динамика переводческого пространства. Перм: Изд-во Перм. гос. ун-та, 2003. – 232 с.; Кушнина Л.В. Принципы гармоничного перевода: метапереводческий аспект // Стереотипность и творчество в тексте: межвуз. сб. науч. тр. – Перм, 2014. -№ 18. – С. 65-76.



1.3-rasm. Tarjimon va retsiyent individual kognitiv maydonlarining kesishuvi.
 (IKMt-tarjimon individual kognitiv maydoni, IKMr-retsiyent individual kognitiv maydoni, KBr-tarjimon kognitiv bazasi, KBr-retsiyent kognitiv bazasi.)

Turli xil kognitiv baza (asos)larga ega bo‘lgan holda, individual kognitiv bo‘shliqlar kesishadi, bu yerda asl matnning haqiqiy tarjimasini joylashgan.

Tarjima transformatsiyalari transformatsiyalar tarjimonning til birliklarini qayta tuzish, ularni maqsadli tilga moslashtirish va ma‘noni saqlab qolishga yordam beradi. Tarjima transformatsiyalari bo‘yicha J.-P.Vine va J.Darbelnet, C.Ketford, Y.Nayda kabi olimlarning tadqiqotlari ushbu jarayonning mantiqiy asoslarini o‘rganishga va tarjima jarayonini yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi¹⁶.

“Muallif fikrini tarjima transformatsiyalarida ifodalash strategiyalari” deb nomlangan II bobda tarjima strategiyalarining tillararo moslashtirish, tarjima transformatsiyalarining asimmetrik mohiyati, madaniy kodlangan lisoniy birliklar tarjimasida shakl va mazmun nisbati pragmatik aspektda tahlil qilinadi.

Muallif fikrini tarjima transformatsiyalarida ifodalash strategiyalari – bu tarjimon tomonidan manba tilidagi muallif fikrini tarjima tilga to‘g‘ri va samarali ifodalash uchun qo‘llaniladigan usul va texnikalar yig‘indisidir.

Tarjima transformatsiyalari yordamida muallif fikrini ifodalashda qo‘llaniladigan asosiy strategiyalar:

So‘zma-so‘z tarjima (literal translation): muallifning fikrini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish usuli bo‘lib, bunda manba tilidagi so‘zlar va tuzilmalar tarjima tilga iloji boricha o‘zgartirilmagan holda o‘g‘iriladi.

Ingliz tilida: *“I punched the roof of my car, as if the car had anything to do with the situation, or as if that would help.”* (John Streeleky, *The Café on the Edge of the World*, p.13)

O‘zbek tilida: *“Men xuddi mashinam aybdor kabi yoki shunchaki zahrinni to‘kish uchun uning shiftiga alam bilan musht urdim.”* (Jon Streleki, *Yer chekkasidagi qahvaxona*, Mushtariy Vinerova tarjimasini, b.13)

Bu yerda, tarjimon aslyat matn mazmunini saqlab, jumla ma‘nosini o‘zbek tiliga moslashtirgan. Ingliz tilidagi jumlada qahramonning mashinaga nisbatan bevosita aloqasi yo‘qligi, ammo hissiyotni chiqarish uchun buni qilgani ifodalanadi. O‘zbekcha tarjimada ham bu fikr aniq saqlangan.

Tarjima jarayonida tarjimon *tillararo moslashtirish* strategiyasidan foydalanadi.

Ingliz tilida: *“I glanced down at the gas gauge again.”* (John Streeleky, *The Café on the Edge of the World*, p.14)

¹⁶Vinay, J.P., & Darbelnet J. *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1995. – pp. 342; Catford J.C. *A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics*. – Oxford University Press, 1965. – pp. 103; Nida E.A. *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. – Brill Academic Publishing, 1964. – pp.331.

O‘zbek tilida: “Men yana yonilg‘i sathini ko‘rsatuvchi strelkaga qaradim.”
(Jon Streleki, *Yer chekkasidagi qahvaxona, Mushtariy Vinerova tarjimasini*, b.14)

Navbatdagi strategiya *modulyatsiya* – bu tarjima jarayonida fikrni yoki iborani boshqa nuqtayi nazardan ifodalash usulidir.

- *Don't knock it till you've tried it.*

She pulls a face. "If it's all the same to you I think I'll stick with knocking it."
(Jojo Moyes, “Me before you”, p.7)

- *Avval o‘zing unab ko‘r, keyin tanqid qil.*

- *Agar qarshi bo‘lmasang, yaxshisi men tanqid qila qolaman, - tamanno ayladi juvon.* (Jojo Moyes, “To seni topgunimcha”, Vinerova Mushtariy Shuhrat qizi, 6-bet)

Yuqoridagilarga yana quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

'Are we still going away this weekend?'

She narrows her eyes. 'Dinner. With or without Mr. BlackBerry?'

'What?'

'Mr. BlackBerry makes me feel like Miss Gooseberry.' The pout again. 'I feel like there's always a third person vying for your attention.'

I'll turn it on to silent.' (Jojo Moyes, “Me before you”, p.7)

- *Dam olish kunlari biror yoqqa boramizmi o‘zi?*

- *Kechki ovqat deysanmi? - juvon yigitning qo‘lidagi smartfonga ishora kqilganicha, yana labini qimtib qo‘ydi. - Mendan ko‘ra anovi matohingga ko‘p e‘tibor berasan.*

- *Men uning ovozi o‘chirib qo‘yaman.* (Jojo Moyes, “To seni topgunimcha”, Vinerova Mushtariy Shuhrat qizi, 6-bet)

Ushbu tarjimada inglizcha asliyat matndan o‘zbek tiliga qanday transformatsiyalar amalga oshirilganini ko‘rib chiqamiz. Tarjimadagi o‘zgarishlar, ayniqsa hazil, ohang va emotsional ifodaning tarjima jarayonida qanday o‘zgarganiga e‘tibor qaratamiz.

Inglizcha matnda *Mr. BlackBerry* va *Miss Gooseberry*¹⁷ o‘rtasidagi so‘z o‘yini qahramonning noroziligini hazil bilan ifoda qiladi. Bu yerda *BlackBerry* (telefon markasi) va *Gooseberry* (so‘z o‘yini sifatida ishlatilgan, ya‘ni qahramon o‘zini erining e‘tibori uchun kurashayotgan kabi his qilgan) o‘rtasidagi bog‘lanish, yumorni kuchaytiradi.

So‘z o‘yinlari va murakkab hazil madaniy jihatdan moslashtirilgan va o‘zbekcha variantda tushunarliroq, oddiyroq ifoda bilan almashtirilgan.

'I feel like there's always a third person vying for your attention.'

- *Mendan ko‘ra anovi matohingga ko‘p e‘tibor berasan.*

Inglizcha matnda qahramon o‘zini erining telefoniga nisbatan “*uchinchi shaxs*” sifatida his qilayotganini ko‘rsatib beradi. O‘zbekcha tarjimada bu murakkab ifoda soddalashtirilgan va *anovi matohingga ko‘p e‘tibor berasan* degan jumla bilan almashtirilgan. Bu ibora ham norozilikni bildiradi, lekin murakkab obrazni kamaytiradi va ma‘noni soddalashtiradi.

'She narrows her eyes.' - *'I'll turn it on to silent.'*

- *Labini qimtib qo‘ydi. - Men uning ovozi o‘chirib qo‘yaman.*

¹⁷ Feel like a Mrs. Gooseberry – UK informal, to be unwanted third person who is present when two other people, especially two people having a romantic relationship, want to be alone. Cambridge Advanced Learner dictionary.

Ingliz tilidagi matnda qahramonning emotsiyalari “*ko‘zlarini qisishi*” orqali ifodalanadi, bu uning hafsalasi pir bo‘lganligini bildiradi. O‘zbek tilida bu emotsiya “*labini qimtib qo‘ydi*” degan ibora bilan ifodalangan. Ikkala holatda ham qahramonning noroziligi va hafsalasi pir bo‘lishi aks ettirilgan, lekin yuzning turli qismlariga urg‘u berilgan.

Men uning ovozi o‘chirib qo‘yaman iborasi esa inglizcha matndagi *I’ll turn it on to silent* degan gapning to‘g‘ri va aniq tarjimasidir.

Ushbu tarjimadagi asosiy transformatsiyalar quyidagilar deb sanab o‘tishimiz mumkin:

1. Hazil va so‘z o‘yinining moslashtirilishi: Inglizcha matndagi murakkab so‘z o‘yinlari (*BlackBerry* va *Gooseberry*) o‘zbekcha tarjimada soddalashtirilgan va tushunarli, oddiyroq iboralar bilan almashtirilgan. Natijada, original matndagi hazil yumshagan va soddalashgan.

2. Obrazli ifodaning soddalashtirilishi: Qahramonning e‘tibor uchun kurashayotganini ko‘rsatadigan murakkab ibora o‘zbek tilida qisqartirilib, ancha sodda shaklda ifoda qilingan.

3. Emotsiyalarni ifodalash usuli o‘zgargan: Inglizcha matndagi ko‘z harakati o‘zbek tilida lab harakati bilan almashtirilgan, lekin umumiy emotsional kayfiyat asosan saqlangan.

Dissertasiyaning III bobi “**Transformatsiyalar lingvokognitiv tabiatining tarjimada voqelanishi**” deb nomlangan bo‘lib, unda tarjimada konnotativ sathning antroposentrik qoliplarda namoyon bo‘lishi, leksik-semantik transformatsiyalarning lingvokognitiv shartlanishi, asliyat tili konseptual qolipini o‘zgartirishda va saqlab qolishda transformatsiyalar, matn deformatsiyalari masalalri ko‘rib chiqilgan.

B.Hatim va I.Mason tarjima jarayonida diskurs va kontekstni hisobga olgan holda madaniy birliklarni tarjima qilish masalalarini o‘rganadi. Diskursiv tarjimada shakl va mazmun muvozanatini saqlash muhimligi haqida muhim tadqiqotlarni o‘z ishlarida ko‘rib chiqadi¹⁸.

G.Tury tarjima nazariyasining tasnifiy jihatlariga e‘tibor qaratgan. U tarjimonlar tomonidan qo‘llaniladigan strategiyalarni o‘rganib, madaniy kodlangan birliklarni tarjima qilishda shakl va mazmun o‘rtasidagi nisbatni qanday boshqarish lozimligi haqida tahlillar kiritgan¹⁹.

